



## YANGI PED TEXNOLOGIYALAR VA O'YINLARNING INGLIZ TILINI O'RGATISHDAGI AHAMIYATI

---

*Mardonqulova Sabrina Samandar qizi*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2-fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda ingliz tili yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

*Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.*

**Annotatsiya:** bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish dolzarbliji bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada ham, xojiriy tillarni ya'ni ingliz tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan va o'yinlardan foydalanish, ular til o'rganishdagi ahamiyati, qulayliklari va afzallikkleri haqida batafsil ma'lumotlar beril o'tildi.

**Kalit so'zlar:** ingliz tilining ahamiyati, innovatsion metodlar, o'yinlar va ularning turlari, Khoot o'yini, Kloo o'yini..

Bugungi rivojlanayotgan davrda har bir sohada xususan, ilm-fan sohasida o'zgarishlar va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ilm-fanga ayniqsa, chet tillarga e'tibor yanada kuchaydi. Har bir fanni zamonaviy innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanib o'rgatish bugungi davrning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy ta'linda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashlik etishga bo'lgan talab kundan-kunga o'sib boryapti. Buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha bo'lgan ana'naviy ta'limdan farqli ravishda zamonaviy metodlardan foydalanganda o'quvchi shaxsining rivojlanishi , shakllanishi, yetarli bilim olishi va tarbiyalanishiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratilayapti. Zamonaviy metodlar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Chet tillarini xususan , ingliz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari mavjud. Jumladan, dars jarayonida ingliz tilidagi video roliklar, dialoglar , kino yoki multfilmlarni ko'rsatish , ancha ana'naviy usul hisoblangan magnitofon va CD lardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tili o'rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos .Shu o'rinda hozirgi davrda keng qo'llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda. [<sup>1</sup>].

Metod – grekcha “metodos” so‘zidan olingen bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatadi. Ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan bирgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo‘l-yo‘rig‘i. Metodlarning quydagi ko‘rinishlari ham

---

<sup>1</sup>



mavjuddir.Ular: Og'zaki metodlar- bilimlarni so'z bilan bayon qilish, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash. Ko'rsatmali metodlar - rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar. Amaliy metodlar - mashqlar, laborotoriyadagi amaliy ishlar<sup>[2]</sup>.

Quyda ayrim interfaol metodlarga misolar berildi. Ular ‘Kloo’, ‘Khoot’ va boshqalar.

“Kahoot”- o‘yinga asoslangan o‘quv platformasi bo‘lib, mакtablar va boshqa ta’lim muassasalarida ta’lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o‘quv o‘yinlari “kahoots” foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ko‘p tanlovli viktorinalar bo‘lib, ularga veb-brauzer yoki Kahoot orqali kirish mumkin. Kahoot o‘yinidan talabalar bilimini tekshirish, formativ baholash uchun yoki an'anaviy sinf faoliyatida tanaffus sifatida foydalanish mumkin. Ushbu o‘yin sinfda o‘quvchilar bilan birgalikda onlayn o‘yinaladi. Savollar doskada ko‘rsatiladi va har bir o‘yinchi o‘z telefoni ekranida to‘g’ri javobni tanlaydi. Savollar grammatikani o‘rganish, so‘z boyligini oshirish yoki hatto madaniy bilimlarni chuqurlashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin .Ushbu mashhur til o‘yini bilan sinfda til ko‘nikmalarini mashq qilinsa ham bo`ladi. Kahoot dasturida darslar juda raqobatbardosh bo‘lishi mumkin. Ushbu ta’lim platformasi Wooflash, Socrative yoki Quizlet kabi boshqa texnologik o‘quv vositalariga o‘xshaydi.

Kloo- bu o‘yin sovg‘ali hisoblanib, bu asosan til o‘rganuvchilariga rag‘batlashtirishga moslashgan. Bu o‘yin ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich-o‘quvchilarning yosh darajalariga va kategoriyalariga qarab mavzular tanlab olinadi. Misol uchun grammatika ranglar va boshqalar.Shu mavzuga doir frazalar va iboralar topiladi .Turli xil fe'llar bo'yicha gaplar tuziladi.Ular kartochkalarga yozishadi fe'llarni. Bunda boshqa guruh o‘quvchilari so'zlarni bir- biriga moslashtirib so'zlar tuzadi. Bu to'rt yoki besh nafar o‘quvchilar bilan o‘ynaladi.Bu fransuz,italyan,ingлиз tillarini o‘rganish uchun juda yaxshi.

“BLITS-SO’ROV” METODI. “Blits-so’rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo’nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, talim beruvchitomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg’ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, talim oluvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi. Mashg’ulotlarda metodni qo’llash quyidagicha kechadi: Talim beruvchio‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, talim oluvchilar e’tiboriga havola qiladi Talim oluvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo’nda, aniq javob beradi. Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar talim oluvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to’ldiradi, (biroq, fikrlar takrorlanmasligiMetodni qo’llashda mavzuga doir tayanch



tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati ta'lim oluvchi (talaba)lar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.[<sup>3</sup>].

O'yinlar faqat bolalar uchun emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kattalar ko'ngilochar jarayon, ya'ni o'yinlar orqali o'rgangan ma'lumotlarini eslab qolish ehtimoli ko'proq bo'lishi isbotlangan. Odatda, interaktiv o'yinlar o'quchilarni jiddiy muammolarni hal qilishga undaydi. O'quvchilar o'zlari qilgan har bir harakat yoki qaror yoki kiritishga javob beradigan virtual muhitda o'rganadilar. Ular o'yin muhiti bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar, bu muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun ko'nikmalarni rivojlantiradilar va bu ko'nikmalarni qayta-qayta takrorlaydilar. Bu til o'rganishda juda ham foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, interfaol o'yinlar faqat bolalar uchun emas balki, kattalar uchun ham mo'jallangan bo'lib, ulardan foydalanish darsning samaradorligini oshirishda muhim o'rinni tutadi. Ushbu metodlar xorijiy tillarni o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan hisoblandi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Vol. 14 No. 1 (2023): "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH" INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION PED TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XIS JIHATLARI. Authors Nabiyeva Gulbahor Botirali qizi Samarqand davlat chet tililar instituti talabasi.
2. Pedagogik\_texnologiya\_O'quv\_qo'llanma\_Mirhayitova\_Soxibaxon.(161-162 betlar).
3. <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/>.
4. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
5. 30 Games to Learn English While Having a Ball | FluentU English <https://www.fluentu.com/blog/english/games-to-learn-english/>.
6. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).
7. Zubaydova Nilufar Nematillaeva, How to teach vocabulary (2019).